



O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI

VOL. 2 / ISS: 2 (2025)

INSURANCE MARKET OF UZBEKISTAN СТРАХОВОЙ РЫНОК УЗБЕКИСТАНА



INSURANCE

A collage of images related to insurance and finance, including a globe, bar charts, a calculator, gears, and a car.

TOSHKENT DAVLAT
IQTISODIYOT UNIVERSITETI



TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECON-



“O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI” JURNALI TAHIR KENGASHI A'ZOLARI

1. Teshabayev To'lqin Zakirovich (Kengash raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektori, falsafa fanlari doktori, professor).
2. Maqsudov Davron Sanjarxo'jayevich (Kengash raisi o'rinnbosari, Istiqbolli loyihalar milliy agentligi direktori o'rinnbosari).
3. Azimov Rustam Sadikovich ("O'zbekinvest" eksport-import sug'urta kompaniyasi" AJ bosh direktori, falsafa fanlari doktori).
4. Mehmonov Sultonali Umaraliyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, fan nomzodi, professor).
5. Abdurahmonova Gulnora Qalandarovna (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
6. Sindarov Sherzod Egamberdiyevich (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti prorektori, falsafa fanlari doktori, professor).
7. Zakirov Latif Xamidullayevich (Moliya vazirligi huzuridagi TKFJMS qoshidagi To'lovlarni kafolatlash jamg'armasi direktori).
8. Xalilov Oybek Nasirovich (O'zbekiston sug'urta bozori professional ishtirokchilar uyushmasi kengashi raisi).
9. Qurbonov Xayrulla Abdurasulovich (TDIU Xalqaro va milliy reytinglar bilan ishslash kafedrasи mudiri, dots.).
10. Quldoshev Qamariddin Mansurovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи professori, DSc, bosh muharrir).
11. Zaynalov Jahongir Rasulovich (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Moliya" kafedrasи mudiri, falsafa fanlari doktori, prof.)
12. Shennayev Xojayor Musurmanovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи mudiri, DSc, prof.).
13. Boyev Xabibullo Ismoilovich (TDIU "Sug'urta ishi" kafedrasи professori, falsafa fanlari doktori).
14. Ortiqov Furqat A'zamjonovich ("Kafil Sug'urta" AK sug'urta kompaniyasi direktorlar kengashi raisi).
15. Nurullayev Abdulaziz Sirojiddinovich (O'zbekiston madaniyat va san'at instituti professori, falsafa fanlari dots.).
16. Merident Randles (FSA, MAAA. Principal & Consulting Actuary. Katta maslahatchi, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative).
17. Ong Xie (FIA, FSAS. Dastur menejeri, UNDP-Milliman Global Actuarial Initiative. Olmosh: She/Her).
18. Hasanov Xayrulla Nasrullahayevich (TDIU Beshta tashabbus markazi kafedra mudiri, t.f.n.).
19. Mamadiyarov Zokir Toshtemirovich (TDIU "Moliya bozori va sug'urta" kafedrasи mudiri, falsafa fanlari doktori).
20. Mutualova Dilorom Maxamadjanovna (TDIU "Soliqlar va soliqqa tortish" kafedrasи professori, falsafa fanlari doktori).
21. Imomov Hamdilla Hamdamovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи professori v.b., falsafa fanlari doktori).
22. Kenjayev Ilxom G'iyozovich (TDIU Magistratura bo'yicha dekan o'rinnbosari, t.f.d., dots.).
23. Yadgarov Akram Akbarovich (TDIU "Yashil iqtisodiyot" kafedrasи professori v.b., falsafa fanlari doktori).
24. Yuldashev Obiddin Toshmurzayevich (TDIU "Sug'urta" kafedrasи professori v.b.).
25. Samadov Asqarjon Nishonovich (TDIU "Marketing" kafedrasи dotsenti, universitet Kengashi kotibi, fanlar nomzodi).
26. Baratova Dinara Alisherovna (TDIU "Sug'urta" kafedrasи dotsenti, t.f.n. kotib).
27. Qarshiyev Daniyar Eshpo'latovich (TDIU "Sug'urta" kafedrasи dotsenti, t.f.n., bosh muharrir).
28. Nomozova Qumri Isoyevna (Bank-moliya akademiyasi dotsenti, PhD).
29. Hamdamov Shoh-Jahon Raxmat o'g'li (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи dotsenti, t.f.n.).
30. Maxmudov Samariddin Baxriddinovich (TDIU "Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlar" kafedrasи dotsenti, t.f.n.).

№	MUNDARIJA	Page
1.	MILLIY SUG'URTAS BOZORINING INVESTITSIYAVIY JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Qo'lloshev Qamariddin Mansurovich</i>	4
2.	MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA PENSIYA VA HAYOT SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi</i>	8
3.	SUG'URTA MEXANIZMLARINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA'SIRI VA IMKONIYATLARI <i>Ko'chimov Abdujamil Hamraqulovich, To'g'izova Malika Soxib qizi</i>	11
4.	YANGI O'ZBEKİSTONDA AHOLINI IJTIMOIY HIMoyalash borasida davlat tibbiy SUG'URTASINING AHAMIYATI <i>Ametova Fotimajon Rozmatovna</i>	14
5.	O'ZBEKİSTON SUG'URTA BOZORIDA HAYOT SUG'URTA SOHASINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI <i>Matiyazova Sanobar Rajabbayovna</i>	17
6.	TAKAFUL: ISLOMIY SUG'URTANING ZAMONAVIY IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI <i>Xudoyerberdiyev Umid Murodovich</i>	20
7.	GLOBAL MOLIYAVIY BEQARORLIK SHAROITIDA JAHON SUG'URTA BOZORIDAGI ASOSIY TENDENSIYALAR <i>Xalikov Umid Raxmatullaevich</i>	24
8.	SUG'URTA TASHKIOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI <i>Umarova Gulnora Akromovna</i>	28
9.	ISLOMIY MOLIYALASH: TAMOYLLARI, TUZILISHI VA ISTIQBOLLARI <i>Yarashova Vasila Kamalovna, Yuldashtkhujayev Saidusmonkhuzha Botir ugli</i>	30
10.	BUDJET TASHKIOTLARIDA ASOSIY VOSITALARNING ESKIRISHI VA UNGA QO'YILADIGAN CHORA-TADBIRLAR <i>Ashirova Gulchehra Abdug'aniyevna</i>	33
11.	MINTAQAVIY IQTISODIYOTNING MAMLAKAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI <i>Toshaliyeva Saodat Toxirovna</i>	36
12.	SANOAT TARMOG'INING IQTISODIY SALOHIYATINI BAHOLASHDA EKONOMETRIK USULLAR VA OMILLAR <i>Kasimov Azamat Abdukarimovich</i>	39
13.	TADBIRKORLIK SUBYEKTALARINING RENTABELLIGINI BAHOLASHDA EBITDA ASOSIDA BALLI REYTING TIZIMINI SHAKLLANTIRISH METODOLOGIYASI <i>Abdullahayev Zafarbek Safibullayevich</i>	42
14.	O'ZBEKİSTONDA EKOLOGIK BARQARORLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI ANIQLASH <i>Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li</i>	48



SUG'URTA TASHKILOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Umarova Gulnora Akromovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kotta o'qituvchisi
gumarova928@gmail.com

DOI: https://doi.org/10.55439/INS/vol2_iss2/269

Annotatsiya: Sug'urta bozorining rivojlanishi har bir mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va uning moliyaviy tizimining ishonchliligi bilan bevosita bog'liq. Sug'urta kompaniyalari, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash orqali o'z mijozlariga ishonchli xizmat ko'satish imkoniyatini yaratadi.

Kalit so'zlar: sug'urta, sug'urta bozori, sug'urta kompaniyasi, sug'urta sektori, inflyatsiya, sug'urta tashkiloti, aktivlar, rentabellik, likvidlilik, risk, biznes, investitsiya, diversifikatsiya, sug'urta mukofoti, mahsulot.

Abstract: The development of the insurance market is directly related to the economic stability of each country and the reliability of its financial system. Insurance companies provide the opportunity to provide reliable service to their customers by ensuring financial stability.

Keywords: insurance, insurance market, insurance company, insurance sector, inflation, insurance organization, assets, profitability, liquidity, risk, business, investment, diversification, insurance premium, product.

Абстрактный: Развитие страхового рынка напрямую связано с экономической стабильностью каждой страны и надежностью ее финансовой системы.

Страховые компании предоставляют своим клиентам надежное обслуживание, обеспечивая финансовую стабильность.

Ключевые слова: страхование, страховой рынок, страховая компания, страховой сектор, инфляция, страховая организация, активы, доходность, ликвидность, риск, бизнес, инвестиции, диверсификация, страховая премия, продукт.

Kirish(Введение/ Introduction)

Moliyaviy barqarorlik har qanday sug'urta tashkilotining uzoq muddati faoliyat yuritishi va raqobatbardosh bo'lishi uchun muhim omil hisoblanadi. So'nggi yillarda iqtisodiy beqarorlik, inflyatsiya darajasining o'zgarishi, va boshqa makroiqtisodiy omillar sug'urta bozori ishtirokchilarining moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'satmoqda. Shu nuqtai nazardan, sug'urta tashkilotlari uchun moliyaviy xavflarni boshqarish, investitsiya siyosatini takomillashtirish, va ichki nazorat tizimini kuchaytirish zarurati ortib bormoqda. O'zbekiston sug'urta sektori so'nggi yillarda tez o'sishga erishgan bo'lsa-da, moliyaviy barqarorlikni oshirish borasida bir qator muammolar mayjud. Mazkur maqolada sug'urta tashkilotlарining moliyaviy barqarorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi hamda zamonaviy yondashuvlar asosida amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. (Обзор литературы / Literature review). Sug'urta tashkilotlарining moliyaviy barqarorligi so'nggi yillarda nafaqat O'zbekiston, balki jahon miqyosida ham dolzarb tadqiqot mavzularidan biriga aylangan. Bu borada bir qator mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan muhim nazariy va amaliy ishlammalar yaratilgan.

Moliyaviy barqarorlik tushunchasi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilingan. Jumladan, X.X. Abdurahmonov 1 o'z tadqiqotlarida moliyaviy barqarorlikni korxonaning to'lovga qobiliyatiligi, likvidligi va foydalilik darajasi bilan bog'lab tahlil qiladi. Unga ko'ra, sug'urta tashkilotlari uchun bu ko'rsatkichlar yanada murakkabroq, chunki ular uzoq muddatli majburiyatlar va kutilmagan to'lovlar xavfiga ega. Qodirov B. sug'urta kompaniyalarining moliyaviy tahlilida qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlarga – sug'urta mukofoti, to'lovlar darajasi, aktivlar rentabelligi va investitsiya daromadlari kabi omillarni kiritgan. Ushbu yondashuvlar kompaniya faoliyatini holis baholashda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro miqyosda esa Swiss Re va Munich Re 2 kabi yirik qayta sug'urta kompaniyalarini tomonidan e'lon qilinadigan yillik hisobotlar sug'urta bozori barqarorligiga oid muhim tahlillarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, OECD va IAIS (International Association of Insurance Supervisors) tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar moliyaviy barqarorlikni oshirishda nazorat va

nazorat mexanizmlarining ahamiyatini ko'satadi. Shoislomova N.K o'z ilmiy maqolasida sug'urta kompaniyalarida risklarni boshqarish tizimini kuchaytirish zarurligini asoslab bergan 3. Unga ko'ra, kompaniyalarda ichki nazorat tizimi samarali ishlasa, moliyaviy barqarorlikka erishish ehtimoli ortadi. Ayniqsa, Solvency II 4 talablari asosida tuzilgan risk-modellar samarali amaliy yechim sifatida taqdirm etilgan. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar sug'urta sohasiga chuqur kirib kelmoqda. Mirzoyev S raqamlashtirish sug'urta kompaniyalarining operatsion xarakatlarini kamaytirish, mijozlar bazasini kengaytirish va xizmat ko'satish sifatini oshirishda muhim omil ekanini ko'rsatgan 5. Raqamli sug'urta (InsurTech) startaplari orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash tendensiyasi kuzatilmogda. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, sug'urta tashkilotlарining moliyaviy barqarorligini ta'minlash ko'p omilli yondashuvni talab qiladi. Bu yo'nalishda nafaqat an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar, balki zamonaviy risklarni boshqarish tizimlari, investitsion strategiyalar, va raqamli texnologiyalardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. O'zbekiston sug'urta bozori ushbu yondashuvlarni o'zlashtirish orqali barqarorlikni ta'minlashda ijobjiy natijalarga erishishi mumkin.

Tadqiqot usullari (Методология/Methodology).

Tadqiqotni amalga oshirish davomida ekspert baholash, umumlashtirish, taqqoslash, tarixiy va mantiqiy yondashuv, tanqidiy tahlil, statistik ma'lumotlarni guruhlash usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Анализ и результаты. Analysis and results).

Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi nafaqat ularning biznes faoliyatining muvaffaqiyatiga, balki iqtisodiyotning umumiy barqarorligiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Kapitalni boshqarishning samarali yo'llari kompaniyaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi. Sug'urta kompaniyasi investitsiyalarining diversifikatsiyasini ta'minlashi kerak. Kapitalni faqat bir sohada yoki aktivda jamlash xavfli bo'lishi mumkin. Buning o'miga, sug'urta

kompaniyalari ko'chmas mulk, aksiyalar, obligatsiyalar kabi turli xil aktivlar bo'yicha investitsiyalarni amalga oshirishi lozim. Kapitalni qayta investitsiya qilish va kompaniya o'sishini ta'minlash uchun sug'urta kompaniyalarining divident siyosatini optimallashtirish muhimdir. Dividentlarni kamaytirish orqali kompaniya o'z kapitalini yanada mustahkamlashi mumkin. Shu bilan birga, kompaniya daromadlari va aktivlarining balansini to'g'ri saqlash, to'lov qobiliyatini va likvidlikni yaxshilashga yordam beradi. □6□

Sug'urta sektorida innovatsiyalar va raqamlashtirish jarayoni sezilar o'sishga olib keladi. Raqamli platformalar orqali sug'urta kompaniyalar xizmatlarini samarali tarzda taklif etishlari mumkin. Mijozlar bilan aloqalar avtomatlashirilgan xizmatlar orqali olib boriladi, bu esa xarajatlarni kamaytiradi. Raqamli texnologiyalar orqali sug'urta kompaniyalar o'z mijozlariga yuqori sifatlari xizmatlarni taqdim etish imkoniga ega bo'ladi. Mobil ilovalar orqali mijozlar sug'urta shartnomalarini boshqarish, to'lovlarni amalga oshirish va savollarga javob olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Sug'urta kompaniyalar, mijozlarning xulq-atvorni, ehtiyojlarini va xavf darajasini tahlil qilish uchun sun'iy intellekt va big data texnologiyalaridan foydalanshilari mumkin. Bu, o'z navbatida, kompaniyaga xizmatlarni yaxshilash va yangi mahsulotlar ishlab chiqishda yordam beradi. Sug'urta kompaniyasining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ichki audit va nazorat tizimi katta ahamiyatga ega. Ichki audit tizimi orqali kompaniya o'z faoliyatini doimiy ravishda nazorat qilib, potensial xatolarni aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi va investorlarning ishonchini oshiradi. □7□

Nazorat tizimi shaffof bo'lishi kerak, chunki bu mijozlar va investorlar uchun kompaniyaning moliyaviy ahvoli haqida aniq va to'g'ri ma'lumot taqdim etadi.

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirishda yuqorida keltirilgan barcha yo'nalishlarning o'zaro aloqasi va ahamiyati katta. Risklarni boshqarish, kapitalni boshqarish, raqamli texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llash, ichki audit tizimini mustahkamlash orqali sug'urta kompaniyalar o'z moliyaviy barqarorligini oshirishlari mumkin. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat sug'urta kompaniyasining muvaffaqiyatiga, balki butun iqtisodiyotning barqarorligiga ham ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini oshirish — bu ularning uzoq muddatli faoliyatini ta'minlash, sug'urta talablarini to'liq va o'z vaqtida bajarish, shuningdek, moliyaviy xatarlarni boshqarish qobiliyatini kuchaytirishdir. Sug'urta tashkilotning moliyaviy barqarorligi — uning raqobatbardoshligi, mijozlar ishonchi va bozor rivoji uchun poydevor hisoblanadi. Bu barqarorlikni ta'minlash nafaqat ichki boshqaruvga, balki davlat siyosati, nazorat organlari va umumiy iqtisodiy muhitga ham bog'liq. □8□

2023-2024 yillarda mamlakatimizdagi sug'urta tashkilotlari tomonidan kiritilgan investitsiyalar, jumladan 2023 yilda 5 mlrd 793 mlnni taqshkil etib, 2024 yilda bu ko'rsatkich 4 mlrd 319 mlnni tashkil qildi. O'tgan yilga nisbatan 15.9% ga o'sganligini ko'rishimiz mumkin.

Sug'urtalovchilarining investitsion faoliyati — bu sug'urta kompaniyalar tomonidan yig'ilgan sug'urta mukofotlarini (ya'ni mijozlardan olingan sug'urta badallarini) turli moliyaviy aktivlarga joylashtirish orqali daromad olish jarayonidir. Shu bilan bir qatorda

Foydalilanigan adabiyotlar (Литература/ References):

1. Q.X.Abdurahmonov. Mehnat resurslarini boshqarish. 2014.
2. M.S. Davidova, Milliy qayta sug'urta kompaniyasini yaratish kontseptsiysi Moliya universiteti, Moskva, Rossiya 2017 yil
3. Antyushina V.V. "Yevropa to'lov qobiliyati, sug'urtalovchining to'lovga layoqatsizligi standartlari va ularning moliya sektoriga ta'siri" "Iqtisodiyot va biznes" jurnali 2020 yil 1/5 son
4. Shaislamova N.K. "Sug'urta investitsiya risklarini boshqarishning samarali vositasi sifatida" Iqtisod va moliya jurnalni 2022 yil
5. S. Mirzoyev "Sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda va sug'urta portfeli muvozanatida anderrayting xizmati" Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali 2023 yil
6. Шахон В., Ахвледиани Ю. Страхование. З-нашр. – М.: «ЮНИТИ-ДАНА», 2011. В. 140.
7. Архипов А.П. Страхование. – М.: «КНОРУС», 2012. В. 97.
8. Umurzaqova M.N. Ijtimoiy sug'urta. – Т.: "Bookmany Print", 2023. В. 173.

Sug'urtalovchilarining investitsion faoliyati¹

Ko'rsatkich nomi	30.09.2023		30.09.2024		O'zgarish %
	mln. so'mda	Jamiga nisbatan % da	mln. so'mda	Jamiga nisbatan % da	
Jami investitsiyalar, shu jumladan:	5 793 207	100%	6 254 914	100%	+8,0%
Depozitlar (omonatlar)	3 728 238	64,4%	4 319 506	69,1%	+15,9%
Qimmatli qog'ozlar	1 330 631	23,0%	1 294 171	20,7%	-2,7%
Zaymlar	66 956	1,2%	87 904	1,4%	+31,3%
Ko'chmas mulk	504 681	8,7%	444 815	7,1%	-11,9%
Tashkilotlar ustav fondidagi ishtiroki	128 491	2,2%	101 373	1,5%	-21,1%
Boshqa investitsiyalar	34 209	0,6%	7 145	0,1%	-79,1%

moliyaviy barqarorlikni ta'minlaydi. Sug'urtalovchilarining investitsion faoliyati nafaqat kompaniya uchun foydali, balki mijozlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish uchun ham muhimdir. Investitsiyadan olingan daromadlar orqali kompaniyalar sug'urta majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarish imkoniga ega bo'ladi.

Xulosa (Заключение/Conclusion).

Sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi ularning uzoq muddatli faoliyati va mijozlar ishonchini ta'minlashda muhim omildir. Moliya barqarorligini ta'minlash uchun kompaniyalar quyidagi strategik yo'nalishlarga e'tibor qaratishi zarur:

1. Kapital bazasini mustahkamlash – Sug'urta zaxiralari to'g'ri shakllantirish va qayta sug'urtalash mexanizmlaridan samarali foydalanshil zarur.
2. Risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish – Risklarni baholash va ularni diversifikatsiya qilish orqali moliyaviy yo'qotishlarning oldi olinadi.
3. Investitsiya siyosatini optimallashtirish – Erkin pul mablag'larini past xavfli va daromadli aktivlarga joylashtirish orqali daromadlar manbaini kengaytirish mumkin.
4. Ichki nazorat va audit tizimlarini kuchaytirish – Moliya operatsiyalari shaffofligini oshirish, firibgarlik holatlarining oldini olish uchun zarur choradir.
5. Axborot texnologiyalarini joriy etish – Raqamli texnologiyalar yordamida xarajatlarni qisqartirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga erishiladi.

Umuman olganda, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash sug'urta tashkilotning bozor raqobatbardoshligini mustahkamlash va aholining moliyaviy himoyasini ta'minlashda muhim o'r'in tutadi. Shu bois, sug'urta tashkilotlari o'z faoliyatlarini zamonaviy yondashuvlar asosida olib borishlari lozim.

Sug'urta tashkilotlari moliyaviy barqarorligini ta'minlash nafaqat kompaniyaning o'zining raqobatbardoshligini, balki keng jamoatchilik uchun moliyaviy himoya va ishonch yaratishni ham anglatadi. Ular uchun barqarorlik faqat hozirgi faoliyatni qo'llab-quvvatlab qolish emas, balki uzoq muddatda bozorni zabt etish va mijozlarga yuqori sifatlari xizmatlarni taqdim etishdir.